DOI: 10.65322/j.srd.06202026.52

TOSHKENT VILOYATIDA YALPI HUDUDIY MAHSULOT DINAMIKASINING ASOSIY TENDENSIYALARINI STATISTIK BAHOLASH

Djumaniyazova H.A., *katta o‘qituvchi,*
Amaliy matematika kafedrasi,
E-mail: djumaniyozovahilola@gmail.com,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Toshkent viloyatida yalpi hududiy mahsulot (YAHM) dinamikasining asosiy tendensiyalarini statistik baholash masalalari tadqiq etilgan. Hududiy iqtisodiy o‘sish jarayonlarini miqdoriy jihatdan tahlil qilishda yalpi hududiy mahsulotning mutlaq o‘zgarishi, o‘sish sur'atlari, qo‘shimcha o‘sish sur'atlari va dinamik qatorlarning asosiy statistik ko‘rsatkichlaridan foydalanishning nazariy hamda amaliy jihatlari yoritilgan. Shuningdek, YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha tarkibiy o‘zgarishlarini o‘rganish, uning o‘sish tendensiyalarini aniqlash va hudud iqtisodiy rivojlanishining statistik qonuniyatlarini baholashga alohida e'tibor qaratilgan. Tadqiqot natijalari asosida Toshkent viloyatida iqtisodiy o‘sish dinamikasini kompleks statistik baholash hamda hududiy iqtisodiy rivojlanish samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishning uslubiy asoslari shakllantirilgan.*

Аннотация. *В данной статье исследуются вопросы статистической оценки основных тенденций динамики валового регионального продукта (ВРП) Ташкентской области. Освещены теоретические и практические аспекты использования абсолютного изменения валового регионального продукта, темпов роста, темпов прироста и основных статистических показателей динамических рядов при количественном анализе процессов регионального экономического роста. Особое внимание уделено изучению структурных изменений ВРП по видам экономической деятельности, выявлению тенденций его роста и оценке статистических закономерностей экономического развития региона. На основе результатов исследования сформированы методологические основы комплексной статистической оценки динамики экономического роста Ташкентской области, а также разработки научно-практических предложений и рекомендаций, направленных на повышение эффективности регионального экономического развити*

Abstract. *This article examines the statistical assessment of the main trends in the dynamics of Gross Regional Product (GRP) in Tashkent Region. It explores the theoretical and practical aspects of using absolute changes, growth rates, incremental growth rates, and key statistical indicators of time series to quantitatively analyze regional economic growth. Particular attention is paid to examining structural changes in Gross Regional Product by types of economic activity, identifying its growth trends, and assessing the statistical patterns of regional economic development. Based on the research findings, methodological approaches to the comprehensive statistical assessment of economic growth dynamics in Tashkent Region are developed. Furthermore, scientific and practical recommendations aimed at improving the efficiency of regional economic development are formulated.*

Kalit so‘zlar: *Toshkent viloyati, yalpi hududiy mahsulot, iqtisodiy o‘sish, statistik tahlil, dinamik qatorlar, o‘sish sur’ati, qo‘shimcha o‘sish sur’ati, tarkibiy o‘zgarishlar.*

Ключевые слова: *Ташкентская область, валовой региональный продукт, экономический рост, статистический анализ, динамические ряды, темп роста, темп прироста, структурные изменения.*

Keywords: *Tashkent Region, gross regional product, economic growth, statistical analysis, time series, growth rate, incremental growth rate, structural changes.*

DOI: 10.65322/j.srd.06202026.52

Kirish. Jahon iqtisodiyotida yuz berayotgan tarkibiy o‘zgarishlar, globallashuv jarayonlarining chuqurlashuvi hamda hududlararo iqtisodiy raqobatning kuchayishi sharoitida mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish darajasini statistik baholash muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, mamlakat iqtisodiyotining barqaror o‘sishini ta'minlashda hududlarning ishlab chiqarish salohiyati, investitsion faolligi, mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligi va iqtisodiyot tarmoqlarining rivojlanish darajasi muhim o‘rin tutadi. Shu jihatdan yalpi hududiy mahsulot (YAHM) hududiy iqtisodiy rivojlanish darajasi va iqtisodiy o‘sish sur'atlarini ifodalovchi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, iqtisodiyot tarmoqlarini diversifikatsiya qilish, sanoat va xizmatlar sohasining yalpi hududiy mahsulotdagi ulushini oshirish hamda hududlarning investitsion jozibadorligini kuchaytirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur jarayonlarda hududiy iqtisodiy o‘sishning miqdoriy ko‘rsatkichlarini muntazam tahlil qilish, mavjud tendensiyalarni aniqlash va kelgusidagi rivojlanish yo‘nalishlarini ilmiy asoslash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Toshkent viloyati mamlakatning iqtisodiy salohiyati yuqori bo‘lgan hududlaridan biri sifatida sanoat ishlab chiqarishi, qishloq xo‘jaligi, qurilish, transport, savdo va xizmatlar sohalarining rivojlanishi bilan ajralib turadi. Viloyat iqtisodiyotida mazkur tarmoqlarning o‘zaro mutanosib rivojlanishi yalpi hududiy mahsulot hajmi va uning o‘sish sur'atlariga bevosita ta'sir ko‘rsatadi. Shu sababli Toshkent viloyatida YAHM dinamikasining asosiy tendensiyalarini statistik jihatdan o‘rganish, uning o‘sish sur'atlari va tarkibiy o‘zgarishlarini baholash alohida ilmiy ahamiyatga ega.

Toshkent viloyatida yalpi hududiy mahsulot dinamikasining asosiy tendensiyalarini statistik usullar yordamida aniqlash, uning o‘sish sur'atlari va tarkibiy o‘zgarishlarini baholash hamda hududiy iqtisodiy rivojlanishning muhim statistik qonuniyatlarini ochib berishdan iborat.

Yalpi hududiy mahsulotning iqtisodiy mazmuni va statistik mohiyatini o‘rganish, uning yillar kesimidagi dinamikasini tahlil qilish, mutlaq o‘zgarish va o‘sish ko‘rsatkichlarini hisoblash, iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha tarkibiy siljishlarni baholash hamda aniqlangan tendensiyalar asosida ilmiy-amaliy xulosalar ishlab chiqish belgilangan.

Toshkent viloyatining yalpi hududiy mahsuloti va uning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha shakllanish jarayonlari tanlangan. Tadqiqot predmeti esa YAHM dinamikasini statistik baholash, iqtisodiy o‘sish tendensiyalarini aniqlash va tarkibiy o‘zgarishlarni miqdoriy ifodalash usullari hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi. Yalpi hududiy mahsulotning iqtisodiy mazmuni, uni hisoblash tamoyillari va hududiy iqtisodiy o‘sishni statistik baholash masalalari iqtisodiy statistika hamda makroiqtisodiy tahlilning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur masalalar xalqaro iqtisodiy tashkilotlar, iqtisodiy statistika bo‘yicha ilmiy maktablar va mahalliy tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida keng yoritilgan.

Milliy hisoblar tizimining nazariy va metodologik asoslari Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Xalqaro valyuta jamg‘armasi, Jahon banki hamda boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan metodologik tavsiyalarda o‘z aksini topgan. Xususan, System of National Accounts 2008 (SNA 2008) standartida yalpi ichki mahsulot va yalpi hududiy mahsulotni hisoblash, ishlab chiqarish chegaralarini belgilash, qo‘shilgan qiymatni aniqlash hamda iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha statistik ma'lumotlarni shakllantirishning nazariy asoslari yoritilgan. Ushbu standart hududiy iqtisodiy ko‘rsatkichlarni xalqaro metodologik tamoyillar asosida tahlil qilish uchun muhim manba hisoblanadi.

Iqtisodiy o‘sish nazariyasining rivojlanishida R. Solow tomonidan ishlab chiqilgan neoklassik iqtisodiy o‘sish modeli alohida ahamiyatga ega. Mazkur yondashuvda iqtisodiy o‘sish kapital, mehnat resurslari va texnologik taraqqiyot kabi omillar bilan izohlanadi. Ushbu nazariy

DOI: 10.65322/j.srd.06202026.52

qarashlar hududiy iqtisodiy o‘sish omillarini statistik va ekonometrik usullarda baholash [1] uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Shuningdek, P. Romerning endogen iqtisodiy o‘sish nazariyasida bilimlar, innovatsiyalar va texnologik rivojlanishning uzoq muddatli iqtisodiy o‘sishga ta'siri asoslab berilgan [2]. Mazkur yondashuv hududiy iqtisodiy rivojlanishni faqat ishlab chiqarish resurslari hajmi bilan emas, balki innovatsion salohiyat va iqtisodiy samaradorlik bilan ham bog‘liq holda o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi.

Iqtisodiy statistikada dinamik qatorlarni tahlil qilish masalalari ham muhim nazariy ahamiyatga ega. Xususan, statistik dinamik qatorlarning mutlaq o‘zgarishi, o‘sish sur'ati, qo‘shimcha o‘sish sur'ati, o‘rtacha mutlaq o‘zgarish va o‘rtacha o‘sish sur'ati kabi ko‘rsatkichlar iqtisodiy hodisalarning vaqt bo‘yicha o‘zgarish qonuniyatlarini aniqlash imkonini beradi. Ushbu usullar YaHMning uzoq muddatli rivojlanish tendensiyalarini aniqlashda muhim metodologik vosita hisoblanadi.

Mavjud ilmiy va metodologik manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, yalpi hududiy mahsulotni baholashda uning nominal hajmi bilan bir qatorda real o‘sish sur'atlarini, iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha tarkibini va tarmoqlarning iqtisodiy o‘sishga qo‘shgan hissasini ham o‘rganish zarur. Shu sababli mazkur maqolada Toshkent viloyati YAHM dinamikasini kompleks statistik baholashga yo‘naltirilgan yondashuv taklif etiladi.

Iqtisodchi olim B.Usmonovning qayd etishicha: “Ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishni tavsiflash uchun ijtimoiy statistika milliy boyliklardan tashqari quyidagi ko‘rsatkichlardan ham foydalanadi: yalpi ichki mahsulot, yalpi hududiy mahsulot, yalpi milliy daromad va boshqalar ” [3].

Mualliflar H.Nabiyev, M.Ahmedovalarning fikricha: – “Ma’lumki makroiqtisodiy faoliyat hududdagi xo‘jalik yurituvchi birliklarining iqtisodiy faoliyatlari yig‘indisidan tashkil topadi. Shuningdek natijaviy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar ham shu xo‘jalik birliklarining faoliyatlari natijalari yig‘indisini ifodalaydi. Lekin ayrim korxonalar, tarmoqlar, mahsuloti hajmini hisoblash o‘ziga xos xususiyatlarga ega” [4].

Mahalliy iqtisodiy tadqiqotlarda ham hududiy rivojlanish, milliy hisoblar tizimi, iqtisodiy o‘sish va statistik tahlil masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi tomonidan e'lon qilinadigan hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy holati bo‘yicha statistik to‘plamlar Toshkent viloyati YaHM dinamikasini o‘rganishda asosiy axborot manbasi bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida Toshkent viloyatining yalpi hududiy mahsuloti dinamikasini statistik baholashda iqtisodiy-statistik tahlilning an'anaviy va zamonaviy usullaridan foydalanish nazarda tutiladi. Bunda statistik kuzatish, guruhlash, taqqoslash, indeks, dinamik qatorlar, tarkibiy tahlil va grafik tasvirlash usullari tadqiqotning asosiy metodologik vositalari sifatida belgilanadi.

Tadqiqotning axborot bazasini O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi, Toshkent viloyati statistika boshqarmasi tomonidan e'lon qilingan rasmiy statistik ma'lumotlar, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bo‘yicha statistik to‘plamlar hamda xalqaro statistik tashkilotlarning metodologik materiallari tashkil etadi [5, 6].

Yalpi hududiy mahsulot dinamikasini baholashda, avvalo, dinamika qatorlarini tahlil qilish ko‘rsatkichlaridan foydalaniladi:

1. “Mutlaq qo‘shimcha o‘sish yoki kamayish – har qaysi keyingi davr darajasidan boshlang‘ich yoki o‘zidan oldingi davr darajasini ayirish yo‘li bilan aniqlanadi.

$$\Delta_{\text{baz}} = Y_{\text{i}} - Y_0; \quad \Delta_{\text{zanj}} = Y_{\text{i}} - Y_{\text{i}-1}, \tag{1}$$

2. O‘sish yoki kamayish koeffitsienti yoki sur’ati ($K_{o‘.k.}$) – har qaysi keyingi davr darajasi boshlang‘ich yoki o‘zidan oldingi davr darajasiga nisbatan qancha martaba katta yoki kichik ekanligini yoki qancha foiz tashkil etishini ko‘rsatadi.

DOI: 10.65322/j.srd.06202026.52

$$K_{\text{baz}} = \frac{Y_i}{Y_0}; \quad K_{\text{zanj}} = \frac{Y_i}{Y_{i-1}}; \quad T_{\text{baz}} = \frac{Y_i}{Y_0} \cdot 100; \quad T_{\text{zanj}} = \frac{Y_i}{Y_{i-1}} \cdot 100, \tag{2}$$

3. Qo‘shimcha o‘sish (kamayish) sur’ati (D) ham ikki usulda aniqlanishi mumkin. Birinchi usulda har bir keyingi davr darajasidan boshlang‘ich davr darajasi ayirilib, boshlang‘ich davr darajasiga bo‘linadi va 100 ga ko‘paytiriladi.

$$D_{\text{baz}} = \frac{Y_i - Y_0}{Y_0} \cdot 100 = T_{\text{baz}} - 100, \tag{3}$$

Ikkinchi usulda har bir keyingi davr darajasidan oldingi davr darajasi ayirilib, o‘zidan oldingi yil darajasiga bo‘linadi va 100 ga ko‘paytiriladi.

$$D_{\text{zanj}} = \frac{Y_i - Y_{i-1}}{Y_{i-1}} \cdot 100 = T_{\text{zanj}} - 100, \tag{4}$$

1% qo‘shimcha o‘sish (kamayish)ning mutlaq qiymati – mutlaq qo‘shimcha o‘sish qiymati zanjirsimon qo‘shimcha o‘sish sur’atiga bo‘linadi” [7]. Bazisli hisobda bu qiymat o‘zgarmas va Y₀/100 ga teng.

$$A_i = \frac{\Delta_{\text{zanj}}}{D_{\text{zanj}}} = \frac{Y_{i-1}}{100}. \tag{5}$$

Tadqiqot metodologiyasining yana bir muhim yo‘nalishi nominal va real iqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichlarini farqlashdan iborat. Chunki joriy narxlarda hisoblangan YaHM hajmining ortishi nafaqat ishlab chiqarish hajmining ko‘payishi, balki narxlar o‘zgarishi bilan ham bog‘liq bo‘lishi mumkin. Shu sababli iqtisodiy o‘sishning haqiqiy holatini baholashda taqqoslama narxlardagi YAHM hajmi va deflyator indeksidan foydalanish maqsadga muvofiq.

Shunday qilib, tanlangan statistik usullar Toshkent viloyati yalpi hududiy mahsulotining vaqt bo‘yicha o‘zgarishini, iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi tarkibiy siljishlarini hamda iqtisodiy o‘sishning umumiy qonuniyatlarini kompleks baholash imkonini beradi.

Tahlil va natijalar. Toshkent viloyatining iqtisodiy rivojlanish holatini baholashda yalpi hududiy mahsulot hajmi, uning real o‘sish sur'atlari va respublika yalpi ichki mahsulotidagi ulushi muhim statistik ko‘rsatkichlar hisoblanadi. Mazkur ko‘rsatkichlar hududning iqtisodiy salohiyati, ishlab chiqarish faolligi va milliy iqtisodiyotdagi o‘rnini aniqlash imkonini beradi.



1-rasm. Toshkent viloyatining YaHM hajmi dinamikasining o‘zgarish sur’atlari

2025-yilda Toshkent viloyatining yalpi hududiy mahsuloti (YaHM) hajmi joriy narxlarda 180177,4 mlrd. so‘mni hamda 2024-yilning mos davri bilan taqqoslaganda real o‘sish sur’ati 7,2 % ni tashkil etdi.

O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha yalpi ichki mahsuloti (YaIM)ning shakllanishida Toshkent viloyatining qo‘shgan hissasi 9,7 % ga yetdi (1-rasm).

2025-yilda Toshkent viloyati YaHMning o‘sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o‘sish sur’atlari bilan bog‘liqdir. O‘sish sur’atlari qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 104,1 % ni (YaHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi – 17,2 %), sanoatda – 106,6 % ni (44,2 %), qurilishda – 110,0 % ni (8,1 %), xizmatlar sohasida – 109,1 % ni (30,5 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o‘sish sur’atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarda 112,1 % (10,2 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 115,1 % (5,5 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 105,2 % dan (14,8 %) iborat bo‘ldi (1-jadval).

DOI: 10.65322/j.srd.06202026.52

1-jadval

Toshkent viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YaHMni ishlab chiqarish dinamikasining o‘zgarishi

Ko‘rsatkichlar	Hajmi, mlrd so‘m		O‘sish sur’atlari, % da
	2024-yil	2025-yil	
I. Yalpi hududiy mahsulot – jami:	151 251,8	180 177,4	
shu jumladan:			
Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	146 298,3	175 381,5	107,2
Mahsulotlarga sof soliqlar	4 953,5	4 795,9	108,8
II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	146 298,3	175 381,5	107,2
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	26 171,7	30 143,1	104,1
Sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)	74 913,2	91 613,3	107,1
sanoat	62 852,2	77 451,1	106,6
qurilish	12 061,0	14 162,2	110,0
Xizmatlar	**45 213,4**	**53 625,1**	**109,1**
savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	14 792,8	17 864,3	112,1
tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlari	7 478,3	9 664,6	115,1
boshqa xizmat tarmoqlari	22 942,3	26 096,2	105,2

Jadval ma’lumotlariga ko‘ra, 2014–2025-yillarda yalpi hududiy mahsulot hajmi barqaror o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lgan. Jumladan, 2014-yilda 94 685,3 mlrd so‘mni tashkil etgan mahsulot hajmi 2025-yilga kelib 180 177,4 mlrd so‘mga yetgan. Natijada, ushbu davrda yalpi hududiy mahsulot hajmi 85 492,1 mlrd so‘mga yoki 90,3 foizga oshgan. Eng yuqori zanjirli qo‘shimcha o‘sish 2021-yilda 10,9 foizni, eng past ko‘rsatkich esa 2017-yilda 1,0 foizni tashkil etgan. 2025-yilda 2024-yilga nisbatan mahsulot hajmi 12 101,5 mlrd so‘mga oshib, o‘sish sur’ati 107,2 foizni tashkil qilgan. 2014–2025-yillardagi o‘rtacha yillik o‘sish sur’ati $\sqrt[11]{(180\ 177{,}4 / 94\ 685{,}3)} = 1{,}060$, ya’ni 106,0 % ga teng. Dinamik qatorning eksponensial trend modeli $\hat{Y}_t = 91\ 962{,}4 \cdot 1{,}0605^t$ (t = 0 – 2014-yil) ko‘rinishida bo‘lib, determinatsiya koeffitsiyenti $R^2 = 0{,}988$ ni tashkil etadi; bu YaHM hajmining yiliga o‘rtacha 6,0 % li barqaror eksponensial o‘sish tendensiyasiga ega ekanini ko‘rsatadi. Umuman olganda, tahlil qilinayotgan davrda yalpi hududiy mahsulot hajmining izchil o‘sishi hudud iqtisodiyotida ijobiy rivojlanish jarayonlari kuzatilganini ko‘rsatadi. (2-jadval)

2-jadval

Toshkent viloyati yalpi hududiy mahsuloti hajmi dinamikasining o‘zgarishi

Yillar	Yalpi hududiy mahsulot hajmi, (2025 yilgi taqqoslama baholarda) mlrd.so‘m (Y)	Absolyut qo‘shimcha o‘sish, mlrd.so‘m		O‘sish sur’ati, %		Qo‘shimcha o‘sish sur’ati, %		1 %li qo‘shimcha o‘sish (yoki kamayish)ning mutlaq qiymati, mlrd.so‘m	
		Bazisli	Zanjirli	Bazisli	Zanjirli	Bazisli	Zanjirli	Bazisli: $Y_0/100$	Zanjirli: $Y_{i-1}/100$
		$Y - Y_0$	$Y_i - Y_{i-1}$	(Y_i/Y_0) x100	(Y_i/Y_{i-1}) x 100	$[(Y_i/Y_0)$ x 100]-100	$[(Y_i/Y_{i-1})$ x 100]-100		
2014	94685,3								
2015	100271,7	5586,4	5586,4	105,9	105,9	5,9	5,9	946,853	946,853
2016	104984,5	10299,2	4712,8	110,9	104,7	10,9	4,7	946,853	1002,717
2017	106034,3	11349,0	1049,8	112,0	101,0	12,0	1,0	946,853	1049,845
2018	112820,5	18135,2	6786,2	119,2	106,4	19,2	6,4	946,853	1060,343
2019	122184,6	27499,3	9364,1	129,0	108,3	29,0	8,3	946,853	1128,205
2020	125239,3	30554,0	3054,7	132,3	102,5	32,3	2,5	946,853	1221,846
2021	138890,3	44205,0	13651,0	146,7	110,9	46,7	10,9	946,853	1252,393

DOI: 10.65322/j.srd.06202026.52

2022	147223,7	52538,4	8333,4	155,5	106,0	55,5	6,0	946,853	1388,903
2023	156204,4	61519,1	8980,7	165,0	106,1	65,0	6,1	946,853	1472,237
2024	168075,9	73390,6	11871,5	177,5	107,6	77,5	7,6	946,853	1562,044
2025	180177,4	85492,1	12101,5	190,3	107,2	90,3	7,2	946,853	1680,759

Umuman olganda, statistik ma'lumotlar Toshkent viloyatida yalpi hududiy mahsulotning o‘sish tendensiyasi ijobiy ekanligini ko‘rsatadi. Biroq mazkur o‘sishning sifat jihatlarini aniqlash uchun iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha tarkibiy tahlilni, real o‘sish ko‘rsatkichlarini va hududiy iqtisodiy samaradorlikni birgalikda baholash talab etiladi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari Toshkent viloyatida yalpi hududiy mahsulot dinamikasini statistik baholash hududiy iqtisodiy rivojlanishning asosiy tendensiyalarini aniqlashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. YAHM hajmi va uning o‘sish sur'atlari hudud iqtisodiyotining ishlab chiqarish salohiyati, tarmoqlar rivojlanishi hamda iqtisodiy faollik darajasini ifodalovchi muhim makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar hisoblanadi.

Olib borilgan tahlillar asosida quyidagi xulosalarga kelindi.

Birinchidan, Toshkent viloyatida yalpi hududiy mahsulotning o‘sish tendensiyasi ijobiy xususiyatga ega. 2024-yilda YaHMning real o‘sish sur'ati 7,6 foizni, 2025-yilda esa 7,2 foizni tashkil etgan. Bu ko‘rsatkichlar hudud iqtisodiyotida ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatish faoliyatining rivojlanib borayotganligini ifodalaydi.

Ikkinchidan, yalpi hududiy mahsulot dinamikasini baholashda nominal va real ko‘rsatkichlarni alohida o‘rganish zarur. Nominal YaHM hajmining ortishi har doim ham ishlab chiqarish hajmining mutanosib ravishda oshganligini anglatmaydi. Shu sababli hududiy iqtisodiy o‘sishni baholashda deflyator indeksi va taqqoslama narxlardagi ko‘rsatkichlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Solow R.M. A contribution to the theory of economic growth // The Quarterly Journal of Economics. – 1956. – Vol. 70, № 1. – P. 65–94.

2. Romer P.M. Endogenous technological change // Journal of Political Economy. – 1990. – Vol. 98, № 5, Part 2. – P. S71–S102.

3. Usmonov B.B. Ijtimoiy statistika: o‘quv qo‘llanma / prof. X.N. Nabiyev tahriri ostida. – T.: TDIU, 2004. – 112 b.

4. Nabiyev H., Ahmedova M. Iqtisodiy statistika: darslik. – T.: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2021. – 380 b.

5. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining rasmiy sayti [Elektron resurs]. – URL: https://stat.uz.

6. Toshkent viloyati statistika boshqarmasining rasmiy sayti [Elektron resurs]. – URL: https://toshvilstat.uz.

7. Soatov N.M., Nabiyev N.G‘., Aybjonov A.H. Amaliy statistika: darslik. – Toshkent, 2020. – 593 b.